

Natyurmort



Natyurmort – jonsiz buyumlar tasvirlangan rasm. Bular mevalar, guldastali guldonlar, musiqa cholg'ulari yoki kitoblar bo'lishi mumkin. Rassomlar o'z natyurmortlari orqali buyumlar olamining go'zalligini shakl, hajm va ranglar vositasida yetkazishga harakat qiladilar.

Rahim Ahmedovning quyidagi asarida shirin tarvuzlar, uzum boshlari, muattar shaftolilar, tilyorar qovunlar va xushbo'y nonlar tasvirlangan. Bu rasm sharqona mehmondo'stlik bilan bog'liq iliqlik, mo'l-ko'pchilik va bayramona kayfiyat baxsh etadi.



R.Ahmedov. Natyurmort



Rahim Ahmedov – O'zbekiston xalq rassomi, rangtasvir ustasi va pedagog.

Musavvir ko'pincha rasmlarni xotiraga tayanib emas, balki tabiiy, ya'ni **haqiqiy buyumlarga qarab chizgan**. U tabiatni diqqat bilan kuzatgan holda **narsalarga tushayotgan yorug'likni** mahorat bilan tasvirlab, ularni yorqin va "jonli" qilib ko'rsata olgan.




Olmalar bilan natyurmort chizing.


Rasm chizish bosqichlari:

1. **Savat:** oval asos, to'qilgan devorlar va tutqich rasmini chizing, **olmalarni tasvirlang**.
2. Bo'yoqlar bilan fonni chizing. Savat va olmalarni bo'yang. Kichik detallar ham qo'shing.

1



2



3



4



5

